

## O'TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA BADIY DETALLARNING IFODALANISHI

*Mulkamonova Sanobar*

*Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada detal va uning badiiy asarda tutgan o'rni, yozuvchi O'tkir Hoshimov hikoyalarida ifodalangan detallarning turlari va vazifalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Detal, badiiy voqelik, ruhiyat detali, nutqiy detal, holat va harakat detallari, konkretlashtirish, voqelik bayoni, qahramonlar ruhiyati.

Badiiy asar mazmunini boyitishda, voqealar ta'sirchanligini oshirishda badiiy detallar muhim rol o'ynaydi. "Detal - (fr. detail - tafsilot, mayda-chuyda) - badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi g'oyaviy- badiiy yuk tashuvchi tafsilot." [1. 88] Detallar voqelikni yaratish vositasi bo'lish barobarida, tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoxud holatni konkretlashtiradi, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi. "Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o'ynaydi. Detal odatda, lo'nda, aniq, yorqin va obrazli bo'lib, asosan, tasvir obyektini sintezlashtirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Qisqa-yu sermazmunlikka erishish - badiiy detalning xarakterli xususiyatidir." [2. 74]

Odatda, badiiy asarlarda detallar turli shakllarda qo'llaniladi. Jumladan, ularning predmet detal, portretik detal, nutqiy va ruhiyat detallari kabi turlaridan ko'p foydalaniladi. Badiiy asar mazmunini yuzaga chiqarishda aynan shu eng kichik unsur -detallar qahramonlar taqdirida g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto oddiy bir predmet detali ham juda katta g'oyaviy mazmunga ega bo'ladi.

Qahramonlar nutqini o'ziga xos qilib ko'rsatishda nutqiy detallarning qo'llanilishi asardagi obrazlar xarakterini ochib berish uchun ham muhim vositadir.

Kitobxon qalbiga ta'sir o'tkazishda ruhiyat detallaridan foydalanish ahamiyatlidir. Bunda yozuvchi qahramonlarning g'am chekishi-yu xursand bo'lishini keng sharxlamaydi, aksincha, g'oyatda ta'sirchan bir jumla keltiradi-yu o'sha holat ruhini beradi. " Quruq bayon va uzundan-uzun sharxlar emas, balki xuddi shunday ustalik bilan topilgan aniq detallar, lo'nda va yorqin obrazli chizgilar tasvirigina kitobxonda chuqur taassurot qoldiradi." [2. 76]

Badiiy detallarning yozuvchilar O'tkir Hoshimov va Abdulla Qahhor ijodida ham o'ziga xos badiiy maqsadni ifodalash uchun qo'llanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida qahramonlar tabiatini , qismatini ochib berishda detallarning turli namunalari qo'llanilishi bilan bir qatorda yozuvchining so'z qo'llash mahorati nutqiy detallar vositasida ko'rsatilgan.

Asardagi " Eng og'ir gunoh" hikoyasida yozuvchi bir qator predmet detallarini keltirar ekan, shu orqali davr muhiti, obrazlarning ijtimoiy ahvolini ifodalaydi. Bunda ijodkor uzundan-uzoq hikoya qilib o'tirmaydi, balki "kichik zarra" (detal)lar vositasida kitobxonga ta'sir ko'rsatadi. Hikoyadagi TOLQON ( uyimizda tez- tez oyim tolqon qilar edilar. Endi bilsam o'sha paytlarda oyim nonning ko'pligidan emas, kamligidan qilgan ekanlar), LAVLAGI ( yeyishga hech narsa qolmagani, har kuni yeyilganidan jonga tekkanligi, baribir non kabi emasligi), YONG'OQ kabi predmet detallari vositasida bir oilaning ijtimoiy ahvoli ko'rsatib berilgan. Yozuvchi "urush tugab, og'irchilikning zahri ketmagan yillar" tasvirini berishda yuqoridagi detallardan samarali foydalangan va bu orqali nima demoqchi ekanini kitobxonga anglatishning uddasidan chiqqan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qolaversa, meva-chevalar, sumalak, ismaloq, tut mayiz detallari orqali xalqning urushdan keyingi hayoti, ro'zg'or tebratish mashaqqatlari badiiy ifoda etilgan.

" Bola yig'isi" hikoyasida bolalarga xos soddalik, beg'uborlik tushunchalari "issiq morojniy" epiteli detali vositasida oydinlashtirilgan. Hikoyadagi " chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi" harakat, "sovuq manoj" oqib ko'ylakchasining oldini shalobbo qilgan, boshdan-oyog'igacha loy", "o'pkasi to'lib to'xtovsiz hiqillar edi" holat detallari voqelik tasvirini yanada konkretlashtirishda muhim o'rin tutgan. Voqealarni yanada aniqroq ifodalashda "mashina" ( yig'layotgan, hamma yog'iga morojniy oqib loy qilgan bolakayni mashinasiga o'tirg'izsa, chet eldan keltirilgan yangi paralon g'ilofi rasvo bo'lishini o'ylagan obraz) predmet detalidan ham foydalanilgan.

Hikoyaning bosh g'oyasini ochib berishda bosh obrazlardan biri tomonidan aytilgan " Yig'lab turgan norasidaga rahmi kelmagan odam- odammi?" nutqiy detali muhim rol o'ynaydi.

"Xiyonat" hikoyasida qo'llanilgan "botinka", "siniq oyna" predmet detallari orqali hikoya qahramoniga qilingan nohaqliklar badiiy tarzda ifodalangan. Qolaversa, hikoya so'ngidagi "Faqat ona o'z bolasiga hech qachon hiyonat qilmaydi" nutqiy detali asar g'oyasini konkretlashtiradi.

"Surat" hikoyasi. Nomidanoq ma'lum bo'lgan ushbu hikoya detali yozuvchi iztirobi-yu armonlariga sabab bo'lgan vositadir. "Ana bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q." Nutqiy va predmet detallarining bu tarzda bitta gapda birga ifodalanishi yozuvchi mahoratini va hikoyaning ta'sirchanligini oshirgan.

"Kitob" hikoyasi ham aynan yuqoridagi mazmunda. "Bugun kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, 60ming kitobning hammasini onamga bag'ishladim. Lekin..."

"Mahallaning shayxi" hikoyaaida varrak detali qahramon taqdirini ifodalashda va voqealar tizginini ta'minlashda katta rol bajargan.

"Qanoat" hikoyasida ham **yog'och qoshiq, temir qoshiq, soat** kabi predmet, "Oshsiz uy bor, urushsiz uy yo'q" nutqiy detallari vositasida asar mazmuni yuzaga chiqqan.

"Ergash boboning tilagi" hikoyasidagi **sarg'aygan surat** predmet detali qahramonlar iztirobini ifodalashga xizmat qilgan. "Faqat ingraydi. Titrab-titrab ingraydi" - holat detali esa Ergash boboning xotining o'limiga munosabatini ta'sirli ifodalagan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, detallar badiiylikning bir qismi sifatida asar mazmunini boyitishda muhim o'ringa egadir. Tabiiyligi va hayotni aniq ifodalashi bilan detallar kitobxon qalbini larzaga keltirishi mumkin. "Badiiy detallar asarning emotsional qiymatini oshiradi, kitobxonning estetik didini o'stirishga va umuman hayotni tipiklashtirib ko'rsatishga yordam beradi." [1.77]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Boboyev To'xta. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "O'zbekiston" -2022.
2. Quronov D, Mamajonova Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr" -2013.
3. Normatov U. Hikoyada detal va tafsilot. O'zbek adabiyoti masalalari. Toshkent. "O'zadabiynashr"- 1962.